

SANOAT VA TURIZM SALOHİYATI: ISTIQBOLLI STRATEGIYALAR (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

**Suvonova Sabina Jamshid qizi
Qosimova Shaxina Rustamjon qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
talabalari**

Annotatsiya: Muallif tomonidan ushbu maqolada Navoiy viloyatining sanoat va turizm salohiyati kompleks geografik, iqtisodiy va institutsional yondashuv asosida tahlil qilinadi. Hududning shakllanish tarixi, geografik oʻrni, tabiiy resurs bazasi, sanoat infratuzilmasi hamda turizm imkoniyatlari oʻzaro bogʻliqlikda oʻrganiladi. Shuningdek, mintaqaning barqaror rivojlanishini taʼminlashga qaratilgan istiqbolli strategik yoʻnalishlar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalariga koʻra, sanoat va turizm integratsiyasi hududiy iqtisodiy oʻsishning muhim drayveri hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: sanoat salohiyati, turizm resurslari, erkin iqtisodiy zona, hududiy rivojlanish, geografik joylashuv, investitsiya, iqtisodiy diversifikatsiya.

ПРОМЫШЛЕННАЯ И ТУРИСТИЧЕСКАЯ МОЩНОСТЬ: ПЕРСПЕКТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ (НА ПРИМЕРЕ НАВАЙСКОГО РЕГИОНА)

**Сувонова Сабина Джамшид кизи
Косимова Шахина Рустамджон кизи
Бухарский государственный педагогический институт
Студенты географии и основ экономики**

Аннотация: В статье проводится комплексный анализ промышленного и туристического потенциала Навоийской области на основе географического и экономического подхода. Рассматриваются особенности формирования региона, его природно-ресурсная база, промышленная инфраструктура и туристические возможности. Предложены перспективные стратегические направления устойчивого развития области. Установлено, что интеграция промышленности и туризма является важным фактором регионального экономического роста.

Ключевые слова: промышленный потенциал, туризм, свободная экономическая зона, региональное развитие, инвестиции, географическое положение.

INDUSTRIAL AND TOURISM CAPACITY: PROSPECTIVE STRATEGIES (USING THE EXAMPLE OF THE NAVAI REGION)

Suvonova Sabina Jamshid kizi

Kosimova Shahina Rustamjon kizi

Bukhara State Pedagogical Institute

Students of Geography and Fundamentals of Economics

Abstract: This scientific article provides a comprehensive geographical and economic analysis of the industrial and tourism potential of Navoi region. The historical formation, natural resource base, industrial infrastructure, and tourism opportunities of the region are examined in an integrated manner. перспектив strategic directions for sustainable regional development are proposed. The study concludes that the integration of industry and tourism serves as a key driver of regional economic growth.

Keywords: industrial potential, tourism resources, free economic zone, regional development, investment, economic diversification.

Kirish. Hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining markaziy-g‘arbiy qismida joylashgan Navoiy viloyati maydoni jihatidan eng yirik hududlardan biri bo‘lib, boy tabiiy resurslari va strategik geografik o‘rni bilan ajralib turadi. Viloyat 1982-yil 20-aprelda tashkil etilgan bo‘lib, 1992-yilda qayta tiklanganidan so‘ng respublikaning yirik sanoat markaziga aylandi.

Hozirgi davrda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan ularning mavjud resurs salohiyati, ishlab chiqarish imkoniyatlari va xizmatlar sohasining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir. Ayniqsa, sanoat va turizm tarmoqlari hududiy rivojlanishni jadallashtiruvchi, yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiluvchi hamda aholi farovonligini oshiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu boisdan ham hududlarning sanoat va turizm salohiyatini chuqur o‘rganish, ularni rivojlantirishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga dekabr oyidagi Murojaatnomasida sanoat sohasini rivojlantirish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Unda mamlakat sanoatini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarurligi alohida ta’kidlandi. Prezident sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish orqali iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish lozimligini qayd etdi. Murojaatnomada mahalliyashtirish siyosatini davom ettirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta’minlash muhim vazifa sifatida ko‘rsatildi. Shu bilan birga, tayyor sanoat mahsulotlari eksportini oshirish, yangi tashqi bozorlarni egallash hamda mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligi ta’kidlandi. Energiya samaradorligini oshirish ham sanoatni rivojlantirishning muhim omili sifatida tilga olindi. Korxonalarda energiya

tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish vazifalari belgilandi. Shuningdek, hududlarda sanoatni rivojlantirish, kichik sanoat zonalarini tashkil etish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish va shu orqali yangi ish o'rinlari yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, davlat ishtirokini qisqartirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali sanoatni barqaror rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida mintaqaviy rivojlanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hududlarning tabiiy-resurs bazasidan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va xizmatlar sohasini kengaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Ushbu jarayonda Navoiy viloyati o'zining strategik geografik o'rni, boy mineral resurslari hamda yirik sanoat korxonalari bilan alohida ajralib turadi.

Navoiy viloyati respublikaning eng yirik sanoat markazlaridan biri bo'lib, bu yerda tog'-kon sanoati, rangli metallurgiya, kimyo sanoati va energetika tarmoqlari rivojlangan. Viloyat hududida joylashgan yirik sanoat korxonalari nafaqat ichki bozorni muhim mahsulotlar bilan ta'minlab kelmoqda, balki eksport salohiyatini oshirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi hududda transport, logistika va ijtimoiy infratuzilmaning kengayishiga turtki bo'lmoqda.

Biroq Navoiy viloyatining iqtisodiy salohiyati faqat sanoat bilan cheklanib qolmaydi. Viloyat hududida tarixiy-madaniy meros ob'ektlari, noyob tabiiy landshaftlar, arxeologik yodgorliklar va ekologik jihatdan qimmatli hududlar mavjud bo'lib, ular turizm sohasini rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Sarmishsoy dasaridagi qadimiy qoya rasmlari, cho'l va tog' oldi hududlarining o'ziga xos tabiati madaniy, ekologik va ilmiy turizm yo'nalishlarini shakllantirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda Navoiy viloyatida turizm sohasining rivojlanish darajasi mavjud imkoniyatlarga nisbatan yetarli emasligi kuzatilmoqda. Bu holat turizm infratuzilmasining to'liq shakllanmaganligi, xizmatlar sifati va marketing tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli sanoat va turizm tarmoqlarini o'zaro uyg'unlashtirish, innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish va investitsiya muhitini yanada yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Navoiy viloyati O'zbekiston Respublikasining markaziy-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 110,8 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi va mamlakat hududining qariyb to'rtidan bir qismini egallaydi. Shimolda Qozog'iston Respublikasi, g'arbda Buxoro viloyati, janubda Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari, sharqda esa Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Geografik joylashuvi viloyatni mintaqaviy tranzit hudud sifatida rivojlantirish imkonini beradi.



1-rasm. Navoiy viloyatining ma'muriy xaritasi

Hududning asosiy qismi Qizilqum cho'li hududiga to'g'ri keladi. Janubi-sharqiy qismida Nurota tog' tizmalari joylashgan bo'lib, ular viloyatning tabiiy-landshaft xilma-xilligini ta'minlaydi. Iqlimi keskin kontinental, yoz oylarida havo harorati $+40^{\circ}\text{C}$ dan yuqori ko'tarilishi, qishda esa sovuq bo'lishi bilan xarakterlanadi. Yillik yog'in miqdori kam bo'lib, bu qishloq xo'jaligi va suv resurslarini boshqarishda alohida yondashuvni talab etadi. Zarafshon daryosi, shuningdek Aydarko'l va Tudako'l suv havzalari hudud iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyat iqtisodiyotining asosini sanoat tarmog'i tashkil etadi. Ayniqsa, konchilik va metallurgiya sanoati yetakchi o'ringa ega. Muruntov oltin koni dunyodagi eng yirik ochiq konlardan biri bo'lib, Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan qayta ishlanadi. Shuningdek, hududda uran, fosforit, marmar, granit va boshqa foydali qazilmalar zaxiralari mavjud. Bu esa viloyatni respublika eksport salohiyatining muhim manbaiga aylantirgan.

Mustaqillik yillarida "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilishi sanoatni diversifikatsiya qilish jarayonini jadallashtirdi. Mazkur hududda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalari, elektrotexnika, kimyo va qurilish materiallari sanoati rivojlanmoqda. Transport-logistika infratuzilmasi, jumladan, xalqaro aeroport va temir yo'l tarmoqlarining mavjudligi investitsion jozibadorlikni oshiradi.

Sanoat bilan bir qatorda, viloyatda turizmni rivojlantirish uchun ham muhim resurslar mavjud. Sarmishsoy darasidagi qadimiy petrogliflar Markaziy Osiyodagi eng yirik tosh suratlar majmualaridan biri hisoblanadi. Nurota tog'lari hududida ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyati yuqori. Aydarko'l hududi esa

rekreatsion turizm, baliqchilik va dam olish maskani sifatida tobora mashhur bo‘lib bormoqda. Turizm sohasini rivojlantirish hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi.

Sanoat va turizmni o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Masalan, sanoat turizmi – yirik kon va ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar tashkil etish – hududning innovatsion imijini shakllantirishi mumkin. Shu bilan birga, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

1-jadval

№	Yo‘nalish	Asosiy resurs yoki obyekt	Rivojlanish istiqboli
1.	Konchilik	Oltin, uran, fosforit	Yuqori eksport salohiyati
2.	Kimyo sanoati	Mineral o‘g‘itlar	Qayta ishlashni kengaytirish
3.	Energetika	Issiqlik elektr stansiyalari	Modernizatsiya zarur
4.	Ekoturizm	Nurota tog‘lari	Turizm klasteri yaratish
5.	Arxeologik turizm	Sarmishsoy	Xalqaro miqyosda targ‘ibot
6.	Rekreatsion turizm	Aydarko‘l	Dam olish infratuzilmasini kengaytirish

1-jadval. Navoiy viloyatining sanoat va turizm salohiyati ko‘rsatkichlari.

Navoiy viloyatining sanoat salohiyati, avvalo, uning boy mineral-xomashyo resurslari bilan bevosita bog‘liqdir. Viloyat hududida oltin, uran, fosforit, marmar, granit kabi foydali qazilmalarning katta zaxiralari mavjud. Ayniqsa, Muruntov oltin koni dunyodagi eng yirik oltin konlaridan biri hisoblanib, mamlakatning eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyati viloyat sanoatining tayanch tarmog‘i bo‘lib, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda.

Viloyatda kimyo sanoati ham jadal rivojlanib bormoqda. “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati mineral o‘g‘itlar, kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish orqali qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Energetika sohasi ham sanoat rivojida muhim o‘rin egallaydi. Issiqlik elektr stansiyalari va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan loyihalar viloyatning energetik mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Sanoat zonalarining tashkil etilishi va erkin iqtisodiy hududlarning faoliyati Navoiy viloyatida investitsiya muhitini yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Navoiy erkin iqtisodiy zonasi xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hamda yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy logistika markazlari va transport infratuzilmasining

rivojlanishi viloyat sanoatini ichki va tashqi bozorlar bilan bog‘lash imkonini bermoqda.



2-rasm. Navoiy erkin iqtisodiy zonasi

Turizm sohasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Navoiy viloyati katta, ammo to‘liq foydalanilmagan turizm salohiyatiga ega. Viloyat hududida joylashgan Sarmishsoy darasi, qadimiy qoya rasmlari, tarixiy-me‘moriy yodgorliklar madaniy va tarixiy turizmni rivojlantirish uchun muhim resurs hisoblanadi. Shuningdek, cho‘l landshaftlari, noyob flora va fauna vakillari ekologik va ekstremal turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirishda infratuzilma masalasi alohida ahamiyatga ega. Mehmonxonalar, transport xizmatlari, turistik marshrutlar va servis sifatini oshirish turizm oqimini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Mahalliy aholini turizm jarayonlariga jalb etish, milliy hunarmandchilik va an‘anaviy madaniyatni targ‘ib qilish hududning turistik jozibadorligini yanada oshiradi.

Sanoat va turizmni uyg‘un rivojlantirish Navoiy viloyatining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Masalan, sanoat turizmini rivojlantirish orqali yirik sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishtirish, ekologik standartlarga rioya etilgan holda ochiq tashrif dasturlarini tashkil etish mumkin. Bu nafaqat turizm daromadlarini oshiradi, balki hududning imijini mustahkamlaydi.

Istiqbolli strategiyalar qatoriga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyot elementlarini sanoat va turizm sohalariga tatbiq etish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash ham kiradi. Xususan, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan ishlab chiqarish va ekologik turizmni rivojlantirish viloyatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin tutadi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyati O'zbekiston Respublikasining eng muhim sanoat hududlaridan biri bo'lib, uning iqtisodiy salohiyati asosan boy mineral-xomashyo resurslari, yirik sanoat korxonalari hamda qulay geografik joylashuvi bilan belgilanadi. Tog'-kon sanoati, rangli metallurgiya, kimyo va energetika tarmoqlarining rivojlanganligi viloyatni respublika miqyosida yetakchi ishlab chiqarish markaziga aylantirgan. Bu tarmoqlar hududning eksport salohiyatini oshirish, sanoat mahsulotlari hajmini ko'paytirish hamda aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Shu bilan birga, Navoiy viloyati turizmni rivojlantirish uchun katta, ammo hozircha to'liq ishga solinmagan imkoniyatlarga ega. Tarixiy-madaniy yodgorliklar, arxeologik ob'ektlar, ekologik jihatdan noyob hududlar va cho'l landshaftlari viloyatda turizmning turli yo'nalishlarini shakllantirish imkonini beradi. Biroq turizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xizmatlar sifati va marketing faoliyatining sustligi bu sohaning rivojlanish sur'atlarini cheklab kelmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat va turizm tarmoqlarini alohida-alohida emas, balki o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda samaraliroq hisoblanadi. Sanoat turizmini rivojlantirish, yirik sanoat korxonalari faoliyatini ekologik talablar asosida turistik obyekt sifatida namoyish etish, shuningdek, sanoat infratuzilmasi va xizmatlar sohasini uyg'unlashtirish Navoiy viloyatining raqobatbardoshligini oshiradi.

Umuman olganda, Navoiy viloyatining sanoat va turizm salohiyatidan oqilona foydalanish, innovatsion va ekologik barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan strategiyalarni amalga oshirish orqali hududning iqtisodiy o'sishi, aholi turmush darajasi va hududiy imijining yaxshilanishiga erishish mumkin.

TAKLIFLAR

Navoiy viloyatining sanoat va turizm salohiyatini yanada samarali rivojlantirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Tog'-kon va kimyo sanoatida energiya tejamkor, ekologik xavfsiz texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi. Bu esa viloyatda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, sanoat turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Yirik sanoat korxonalari huzurida maxsus ekskursiya yo'nalishlari, muzeylar va axborot markazlarini tashkil etish orqali mahalliy va xorijiy turistlar uchun yangi turistik mahsulotlar yaratish mumkin. Bu nafaqat turizm daromadlarini oshiradi, balki yosh avlodda sanoat va texnikaga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Uchinchidan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalasiga kompleks yondashuv talab etiladi. Zamonaviy mehmonxonalar, transport va yo'l infratuzilmasi, xizmatlar sifati hamda turistik servislarni yaxshilash orqali viloyatning turistik jozibadorligini oshirish mumkin. Ayniqsa, Sarmishsoy va

boshqa tarixiy hududlarda ekologik talablarga mos infratuzilma yaratish muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, mahalliy aholini turizm va xizmatlar sohasiga keng jalb etish zarur. Hunarmandchilik, milliy taomlar, an'anaviy madaniyatni rivojlantirish orqali ichki turizmni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin. Bu esa aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Rajabov Q. *Navoiy viloyati tarixi*. – Toshkent: Fan, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. *Hududiy statistik to'plam*. – Toshkent, 2023.
3. Navoiy viloyati hokimligi. *Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hisobotlari*. – Navoiy, 2023.
4. Navoiy kon-metallurgiya kombinati. *Yillik ishlab chiqarish hisobotlari*. – Navoiy, 2022.
5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. *Navoiy viloyati*. – Toshkent, 2018.
6. Nurota davlat qo'riqxonasi ilmiy materiallari. – Navoiy, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. *Hududiy turizmni rivojlantirish strategiyasi*. – Toshkent, 2022.